



“MILLIY QADRIYATLARNI ASRASHDA ADABIYOTNING ROLI”



To‘rayeva Dilafruz Tura qizi

Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani 2-son Politexnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada milliy qadriyatlar haqida tushuncha berilgan qadriyatlarning inson hayotidagi o‘rni va ularni hayotga tadbiq etish yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirish va ularni barkamol avlod sifatida tarbiyalash masalalari yoritilgan. Adabiy asarlar orqali yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi umuminsoniy va milliy fazilatlarni shakllantirishning samarali usullari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyat, yosharda milliy qadriyatni singdirish, vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, umuminsoniy fazilatlar.

Annotation This article discusses the concept of national values, the role of values in human life, their implementation in life, the issues of instilling national values in young people and raising them as a harmonious generation. Effective methods of forming universal and national qualities such as patriotism, humanity, honesty, and hard work in young people through literary works are analyzed.

Keywords: national values, instilling national values in young people, patriotism, humanity, honesty, universal human qualities.

Аннотация В данной статье рассматривается понятие национальных ценностей, роль ценностей в жизни человека, их реализация в жизни, вопросы привития национальных ценностей молодёжи и воспитания её как гармоничного поколения. Анализируются эффективные методы формирования у молодёжи таких общечеловеческих и национальных качеств, как патриотизм, гуманность, честность, трудолюбие, через литературные произведения.

Ключевые слова: национальные ценности, формирование у молодежи национальных ценностей, патриотизма, гуманизма, честности,

Kirish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarga sifatli ta’lim-tarbiya masalasi doimo etibor markazda bo‘lishi takidlab o‘tilgan [1] bu nafaqat maktablarda balki, professional ta’lim markazlaridagi har bir o‘qituvchi vazifasi etib belgilanadi, bu sharaflı vazifa ayniqsa ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining zimmasiga ulkan masuliyat xissini yuklaydi. Bizning asosiy maqsadlarimizdan biri –har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, yuksak ma’naviyatli, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalashdir. Bu xizmat yo‘lida umumta’lim fanlarning o‘rni beqiyosdir xususan ona tili va adabiyot fanlari orqali bu qadriyatlar yoshlar onggiga singdirib boriladi. Adabiyot –xalq ruhining aksidir U jamiyat taraqqiyotining muhim omili, ma’naviyat manbai, axloqiy mezonlarni shakllantiruvchi kuchdir. Adabiyot





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

darslari orqali o'quvchilar nafaqat til boyligini oshiradi, balki ularda vatanga muhabbat, tarixiy xotira, halollik, insoniylik kabi yuksak qadriyatlar shakllanadi. Shu bois ushbu maqolada adabiyot fani vositasida milliy qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirish, ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirish usullari keng tahlil qilinadi [2]

Adabiyot va milliy qadriyatlar: uzviy bog'liq. Milliy qadriyatlar har bir xalqning madaniy merosi va o'ziga xosligini belgilovchi eng muhim omillardandir. Qadriyatlar – bu xalqning tili, dini, tarixi, urf-odatlar, an'analari va asrlar davomida shakllangan hayot tarzi. Ularni asrab-avaylash, kelajak avlodlarga yetkazish millatning o'zligini saqlashning eng asosiy shartidir. Adabiyot esa bu qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi kuchli vosita hisoblanadi. Mumtoz adabiyot namoyandalari – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Ogahiy, hozirgi o'zbek adabiyot ijodkorlaridan esa Ozod Sharafiddinov, Toxir Malik, Xurshid Davron, Erkin Azam, Oydin Xojiyeva, Guljamol Asqarova, Mahmud Toyir va boshqalar ijodida ham milliy qadriyatlar alohida o'rin egallaydi. Navoiy o'z asarlarida ma'rifat, adolat, mehr-oqibat, ona tiliga hurmat kabi fazilatlarni targ'ib qilgan. Bobur “Boburnoma” asarida nafaqat tarixiy voqealarni, balki o'sha davrning urf-odatlar, tabiat manzaralari va xalq hayotini jonli tasvirlab bergan. Toxir Malikning “Odamiylik mulki” asarida manaviyat va tarbiya masalalari yoshlarni insoniylik, axloqiy qadriyatlar, tarbiyaning jamiyat hayotidagi o'rni, ahamiyati, milliy odob-axloq masalalari o'z aksini topgan. Bunday asarlar milliy madaniyatimizni asrab-avaylashda va xalqimizning boy merosini kelajak avlodlarga yetkazishda muhim manba vazifasini o'taydi. Adabiyot nafaqat o'tmishdagi merosni asrab qoluvchi ko'priklar vazifasini bajaradi balki, zamonaviy avlodda milliy g'urur, vatanparvarlik va o'z tiliga muhabbat tuyg'usini uyg'otadi. Yoshlarni ko'proq kitob o'qishga jalb qilish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, o'z millatining tarixi va qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash mumkin.[3]

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlarni asrash va kelajak avlodga yetkazish – xalqning tarixiy burchidir. Adabiyot esa bu yo'lda eng muhim ko'priklar, ma'naviyatimizning qal'asi hisoblanadi. Bizning vazifamiz – o'zbek adabiyotini chuqur o'rganish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va bu boy merosni kelajak avlodga butun holda yetkazishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”
2. Mamajonova S.Sh. “Adabiyot darslarida milliy qadriyatlar va barkamol avlod tarbiyasi” Pedagogical international research journal Vol.78. №1. 2025.
3. Toshxo'jayev.S. Milliy qadriyatlar va yoshlarda g'urur tuyg'usi” // O'qituvchi jurnali 2021. №2.

